

O'z davlatiga qaytgan chet ellik ishchilar uchun sanoat baxtsiz hodisalari zararini undirish tartibi

○ Sanoat baxtsiz hodisalariga qarshi sug'urta degani nima?

- Sanoat jarohati sug'urtasi degani ishchi ish tufayli jarohatlansa yoki og'ir kasallikka chalinsa va 4 kundan ortiq davolanishi kerak bo'lsa, davolanib, davolanish vaqti davomida o'rtacha ish haqining 70% ini oladi va agarda ishchi vafot etsa marhumning oila a'zolariga nafaqa puli beriladigan Janubiy Koreyaning jamiyat sug'urtasi tizimidir.
- Chet ellik ishchilar ham Koreyada qonuniy yoki noqonuniy (legal va nolegal) bo'lishidan qat'iy nazar Koreya fuqarolari bilan teng ravishda sanoat jarohati sug'urtasiga a'zo bo'lishi va yordam olishi mumkin
- Chet ellik ishchi o'z davlatiga qaytgandan keyin ham Koreyada ishlagani tufayli og'ir kasallikka chalinsa Koreya Sanoat Ishchi Kuchi Tashkilotining chet eldagi EPS markazi orqali Mehnatni Muhofaza qilish agentligiga sanoat zararini qoplash uchun yordam puli olish mumkin.

○ O'z davlatiga qaytgan chet ellik ishchilarning sanoat zararini qoplash (kompensatsiya) tartibi

- Chet ellik ishchi Koreya Sanoat Ishchi Kuchi agentligining chet eldagi EPS markazi orqali sanoat jarohati sug'urtasi haqida maslahat olgandan so'ng, markazga qo'yilgan davolanish uchun yordam puliga arizani to'ldirib topshiradi (EPS markazi → Mehnatni Muhofaza qilish agentligi)
- Mehnatni Muhofaza qilish agentligi tomonidan sanoat jarohatining haqiqiyli va ishlagan ishi qanaqaligi kabilar tekshirilgandan so'ng ishchiga yordam puli berish yoki bermaslik hal qilinadi

○ Davolanish uchun yordam puliga arizasi to'ldirish tartibi

- ① Ishga kirgan kuni, ish vaqti, haftasiga ishlagan kuni, ishlagan vaqti, ② Dam olish vaqti, ovqatlanish vaqti, ③ Avval ishlagan joyidan ish tajribasi (korxonasi nomi, ishlagan vazifasi, ishlagan vaqti), ④ Bo'yi, og'irligi, ⑤ Avval kasallikka chalingan bo'lsa kasallik tarixi, baxtsiz hodisaga uchragan bo'lsa hodisa tarixi, ⑥ Odatda sport bilan shug'ullanishi va hobbisi, ⑦ Tamaki chekishi va spirtli ichimliklar ichishi yoki ichmasligi, ⑧ Ishlagan ishi (vaqtiga qarab), ⑨ Baxtsiz hodisa tafsilotlari va kasallik alomatlarini tafsilotlari, ⑩ Guvoh aytobiografiyasi, Kasallik alomatlarini sezilgandan so'ng borgan kasalxonasi nomi, ⑪ Ishchi bilan o'xshash kasallikka chalingan hamkasbi bor yo'qligi haqida, ⑫ Korxonasi boshlig'i davolanish uchun pul va kasal bo'lib ishga chiqolmagan vaqtida yordam puli ajratganligi haqida aniq yozib topshiriladi (qo'shimcha varaqda yozsa ham bo'ladi)

Davolanish uchun

yordam puli uchun

ariza topshirish

(ishchi→EPS

markazi)

Baxtsiz hodisa

tafsilotlari

o'rganiladi

baxtsiz hodisa ish vaqtida ro'y berganligi tekshiriladi

Davolanish uchun

yordam puli uchun

berilgan arizaning

javobi ishchiga

e'lon qilinadi(EPS

markazi→Ishchi)

○ Ishni hal qilish tartibi

Davolanish uchun yordam puli	Ish paytidagi baxtsiz hodisa tufayli 4 kundan ortiq davolanishi lozim bo'lgan ishchi tibbiyot muassasalarida davolanadi
Ishga layoqatsizlik nafaqasi	Ish tufayli jarohatlansa yoki og'ir kasallikka chalinsa, davolanishi uchun ishga chiqa olmasligini hisobga olib, ishga chiqmagan kunlari uchun kuniga o'rtacha ish haqining 70% i beriladi
Jarohatlanganligi uchun yordam puli	Davolanish boshlanganiga 2 yil bo'lsa ham jarohati yoki og'ir kasalligi tuzalib ketmasa, va bu holat qonunda belgilangan ishga layoqatsizlik darajasi me'yoriga to'g'ri keladigan bo'lsa beriladigan yordam puli
Ish tufayli baxtsiz hodisa ro'y berganda oladigan yordam puli	Jarohati yoki og'ir kasalligi tuzalib ketgandan so'ng ham kasallik asoratlari qoladigan bo'lsa, kasallik asoratlari 14 ta darajaga bo'linib, belgilangan daraja bo'yicha yordam puli beriladi
Marhum oila a'zolariga beriladigan nafaqa va dafn qilish uchun pul	Baxtsiz hodisa tufayli vafot etgan ishchining oila a'zolariga yillik nafaqa (bir martalik) ajratilib, dafn marosimi o'tkazadigan odamga dafn marosimi xarajatlarini qoplash uchun yordam puli ajratiladi

○ Sug'urta nafaqasi turlari

○ O'zbekiston EPS markazi

- Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod dahasi, Tolimarjon ko'chasi, 3-uy

- Telefon: 71-291-9545